



«T A S D I Q L A Y M A N»

Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig'ining
birinchi o'rinosari

Sh. Norkulov
13-iyun 2023- yil

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish
mavzusida bo'lib o'tgan yig'ilish**

BAYONI № 6

2023- yil 13-iyun

Toshkent sh.

Yig'ilish raisi:

- Sh.Norkulov – Boshqarma boshlig'ining birinchi
o'rinosari

Qatnashganlar:

- S.Annazarov – Boshqarma boshlig'i o'rinosari
- M.Usmonov-boshqarma yurist konsulti
Boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman
statistika bo'limlari xodimlari

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son Qarorining mazmun mohiyati.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarorining mazmun mohiyati.

(Sh.Norkulov, S.Annazarov, Sh.Shaagzamova, M.Usmonov, B.Shakarov, Sh.Norkulov)

Yig'ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasining birinchi o'rinosari Sh.Norkulov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdag'i O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi"gi Qonuni yuzasidan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori mazmun-mohiyatini boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o'tdi.

Unda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi"gi qonunning maqsadi Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi hamda Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilishi haqida so'zlandi.

Shuningdek, yig'ilishda so'zga chiqqan Sh.Norkulovning ta'kidlashicha: ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi

vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari, Maxsus vakolatli davlat organining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli organidir, Davlat organlarining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlari aniq belgilab berilganligi ahamiyatlidir.

Avvalambor Davlat fuqarolik xizmatchisi kim?

Albatta, bu kabi savollar yig'ilishda ishtirok etgan har bir xodimda tug'ildi va quyidagicha javoblar olindi:

- Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisi ekanligi;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e'tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo'ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan yo'qotilishi;

- Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiba taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha huquqlar, majburiyatlar va cheklar alohida qonunchilik bilan belgilanganligi;

- mazkur Qonun bilan Davlat fuqarolik xizmatchisining huquqlari, Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatları, Davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklar, Davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi, Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish, Davlat fuqarolik xizmatchisining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabati, Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, Davlat fuqarolik xizmatida sovg'alarga nisbatan munosabatda bo'lish shartlari, Manfaatlar to'qnashuvi, Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash shartlari aniq belgilab berilganligi;

Shu bilan birga, Davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish, Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag'batlantirish choralarining qo'llanilishi, Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy jayobgarligi, Davlat pensiya ta'minoti kabi masalalarga ham alohida e'tibor berilganligi haqida ma'lum qilindi.

Shuningdek, Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilarini tomonidan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'yimasligi;

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariiga rioya etilishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, ularga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat o'tkazilishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash tizimini joriy etish;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg'alar olish va berish tartibini belgilash;

davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Qonunchilikda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-81-son Qarorining mazmun-mohiyati yuzasidan ham ma'lumotlar berib o'tildi.

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rilmoxda.

Xususan, bir qator vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimi va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha boshqa xalqaro standarlarning samarali joriy etilganligi hamda amaliyatga tatbiq qilinganligi reyting baholashning obyekti hisoblanib, reyting baholash alohida indikatorlardan tashkil topgan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi ta'kidlandi. Bular quyidagilar:

birinchi yo'nalish — davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyatga tatbiq etilganligi;

ikkinchi yo'nalish — korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchi yo'nalish — davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to'rtinchi yo'nalish — xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchi yo'nalish — korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi sanab o'tildi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Aytish joizki, korrupsiya inson huquq va manfaatlarining qo'pol ravishda buzilishi yoki uchinchi shaxslar maqsadiga yetishi evaziga kimningdir huquqlari poymol bo'lishi bilan kechadi.

Hech birimizga sir emaski, korrupsiya holatida unga qarshi to'xtovsiz kurash olib borilmas ekan, har qanday davlatda ilm-fan, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, bank-moliya, sud-huquq, davlat boshqaruvi va boshqa inson manfaatlari mavjud barcha sohalarda ildiz otib ketishi va mamlakatni ich-ichidan yemirib halokatga yetaklashi turgan gap.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar yil sayin takomillashib bormoqda, ammo korrupsiyani oldini olish qabul qilingan qonun hujjatlarining amaliyotda qo'llanilishini ta'minlab beruvchi aniq mexanizmlar yaratilishini talab etadi. Binobarin, korrupsiyani yo'qotish va unga qarshi kurashish hujjatlar bilan qanchalik tartibga solinmasin inson omiliga borib taqalishi tabiiy. Bu esa, jamoatchilikdan, har birimizdan korrupsiya deya atalmish illatni vaqtida payqash, o'zi va

yaqinlarini undan himoya qilish, ayniqsa, boshqa shaxslarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi insoniylik burchlari ado etilishini talab etadi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huququzarlikni sodir etishdan yoki bunday huququzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori mazmun-mohiyati yuzasidan tushunchalar berib o'tildi.

Jumladan, mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish doirasida ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi izchil joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston sharoitida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonida tegishli sohalarni raqamlashtirish va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga e'tiborni yanada kuchaytirish zarurati vujudga kelmoqda.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan davlat organlari tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

1.2022-yil 1-sentabrdan boshlab, quyidagilarni nazarda tutuvchi "E-Antikorrupsiya" loyihasi to'liq ishga tushirilishi ta'kidlangan:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalar, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (keyingi o'rnlarda — davlat tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari bo'yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralarini tizimli ravishda ko'rish maqsadida "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri"ni shakllantirish va yuritish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish va tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish.

Loyiha "E-Anticor.uz" elektron platformasida amalga oshiriladi;

Reyestrni shakllantirish va yuritish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rnlarda — Agentlik) tomonidan amalga oshirilishi va Internet tarmog'ida ochiq e'lon qilib borilishi belgilab o'tilgan.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash doirasida:

davlat tashkilotlari tomonidan ularga yuklangan har bir funksiya korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan Agentlik va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tahlil qilib boriladi;

davlat tashkilotlari tomonidan o'ziga yuklangan funksiyalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan ma'lumotlar shakllantirilib, ochiq e'lon qilib boriladi;

e'lon qilingan ma'lumotlar yuzasidan fuqarolarning takliflarini onlayn rejimda qabul qilish imkonini yaratgan holda ijtimoiy so'rovlari va mustaqil ekspertlar ishtirokida muhokamalar o'tkaziladi;

har bir funksianing korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "past", "o'rta" va "yuqori" o'chovlarida "E-Anticor.uz" elektron platformasida baholab boriladi;

har bir funksiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarmi o'z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Rejestr yuritilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish tadbirlarini bajarish holati "E-Anticor.uz" elektron platformasida e'lon qilib boriladi.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (yillik) baholash va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini Reyestrga kiritish har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash davlat tashkilotlari tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini jalg qilgan holda korrupsiyaga qarshi nazorat tuzilmalari tomonidan tashkil etiladi. Bunda, korrupsiyaga qarshi nazorat tuzilmalari mavjud bo'lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun ularning tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat ishchi guruuhlar tashkil etilishi mumkin;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni mustaqil baholash maqsadida davlat tashkilotining faoliyati ushbu tashkilot bilan kelishilgan holda mustaqil tashkilot tomonidan tashqi baholashdan o'tkazilishi mumkin. Bunda, tegishli davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qoniqarsiz amalga oshirilgan deb topilgan taqdirda, Agentlik ko'rsatmasiga asosan uning faoliyati tashqi baholashdan o'tkazilishi shart; davlat tashkilotlarining rahbarlari o'zlariga yuklangan funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish uchun shaxsan javobgardir.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagisi O‘RQ-788-soni “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-soni “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarning samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarori rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari boshliqlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-soni “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarning samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarori bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so‘zsiz bajarilishi ta’milansin hamda, Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo‘limlarida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so‘zsiz bajarilishi ta’milansin amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar kiritilsin;

- boshqarma va tuman statistika bo‘limlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan “Odob-axloq qoidalari”ga amal qilgan holda o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas’uliyatlarini yanada oshirsinlar.

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to‘liq ta’minalash yuzasidan barcha zarur choralarini ko‘rgan holda, mansab vakolatlarini suiste’mol qilib, korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat’iy jazo choralarini ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin;

-jismoniylar va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda axborotdan foydalanuvchilarining so‘rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida ko‘rib chiqilishini, murojaatlarning tahlil etilishi va bu borada faoliyat natijalarini muhokama etib borilishini ta’minlab, ushbu masalalarga mas’ul rahbar va xodimlar faoliyati yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

- tadbirkorlik sub’ektlariga ularning huquqlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda muntazam maqolalar chop etib borish, televide niye va radio vositalari hamda rasmiy saytlar orqali chiqishlar tashkil etish, bunda ayniqsa elektron shaklda hisobotlarni taqdim etish tizimining afzalliklari va qulayliklari to‘g‘risida keng ko‘lamda yoritib borilishi ta’milansin;

- boshqarma va tuman statistika bo‘limlarida tadbirkorlik sub’ektlari bilan targ‘ibot-tashviqot ishlarning keng qamrovda va tizimli asosda tashkil etilishini ta’minlab, bunda asosiy e’tiborni tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulayliklari, ularning huquqlari va majburiyatlari, hisobot taqdim etish tartiblari va muddatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarning olib borilishiga, huquqbazarliklarning barvaqt oldi olinishiga va ularning profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratsinlar hamda bu borada sustkashlikka yo‘l qo‘ygan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat’iy intizomiy jazo choralarini ko‘rilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

- boshqarmaning rasmiy veb-saytining uzluksiz faoliyatini ta'minlash va takomillashtirib borish hamda ulardag'i ma'lumotlarni muntazam yangilab va to'ldirib borilishini ta'minlash, shuningdek Davlat statistika organlari faoliyatini ochiqligini yoritib beruvchi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shu bilan birga Statistika agentligi va boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlarning tizim organlarida ijro etilishi holatini muntazam ravishda o'rganilsin;

3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni O'zbekiston Respublikasi MJtK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



A.Mamatov